

MATNAZAR ABDULHAKIMNING BADIY MAHORATI XUSUSIDA

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish:

O'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

SHONAZAROVA PARIZOD

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimon, "Ofarin" mukofoti sohibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, she'rlari bilan qalblarda yashayotgan shoir-Matnazar Abdulhakimning badiiy mahorati xususida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: estetik did, Xorazm shevasi, vatanga muhabbat, umuminsoniy pafos, she'riy to'plam, badiiy topilma, badiiy mahorat, g'azal.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о художественном мастерстве Матназара Абдулхакима - переводчика, обладателя премии "Офарин", заслуженного деятеля культуры Узбекистана, поэта, живущего в сердцах своими стихами.

Ключевые слова: эстетический вкус, хорезмский диалект, любовь к родине, общечеловеческий пафос, поэтический сборник, художественная находка, художественное мастерство, газель.

Annotation: This article discusses the artistic mastery of Matnazar Abdulhakim, a translator, laureate of the "Ofarin" award, Honored Cultural Worker of Uzbekistan, a poet living in hearts with his poems.

Keywords: aesthetic taste, Khorezm dialect, love for the motherland, universal pathos, poetry collection, artistic finding, artistic mastery, ghazal.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir, tarjimon, adabiyotshunos olim va "Ofarin" mukofoti sohibi-Matnazar Abdulhakim 1948-yilning 20-fevralida Urganch tumanidagi Qorovul qishlog'ida tug'ilgan. 1972-yilda Taganrog davlat pedagogika instituti (Rossiya) ni tamomlagandan so'ng Urganch tumanida gazeta bo'lim mudiri, qishloq maktabida o'qituvchi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limida adabiy maslahatchi, Xorazm Ma'mun akademiyasida ilmiy xodim lavozimlarida ishlagan.

Ijodining eng gullagan onlarida uning "Fasllar qo'shig'i", "Bir quchoq gul", "Mavj", "Tiniq tonglar", "Qor qo'shig'i", "Yolg'iz yaproq", "Yonimdagi daryolar", "Oydinlik", "Qorachiqdagi dunyo" kabi she'riy to'plamlari she'riyat ixlosmandlari ko'nglidan joy olgan. Matnazar Abdulhakim she'rlari mavzu qamrovining

kengligi, rang-barangligi va badiiylik, mazmun jihatdan ancha mukammalligi bilan ajralib turadi.

Filologiya fanlari doktori, professor Hamdam Abdullayev ta'kidlaganidek, "Matnazar Abdulhakim she'rlarida shoirning yuksak estetik didi, voqelik va kechinmalarni badiiy kashf etish salohiyati yorqin ko'rinadi".

Shodlingingga qisqa umrimni berib,
Oh-fig'on qilmasdan, nolimasdan, jim,
Asta yer qa'riga ketaman erib
Senga atab gullar yuborish uchun...

"Qor qo'shig'i" she'ridan olingan shu 4 misraning o'ziyoq inson qalbida turli his-tuyg'ularni uyg'otishga qodir. Shoirning qaysi bir she'rini o'qimang, ijodkor tasvirlayotgan har bir voqelikni, har bir manzarani yurakdan his qilasiz. Bu, albatta, shoir badiiy mahoratining yuksakligidandir.

Ayniqsa, "Darsdan so'ng" she'rini o'qigan har bir o'quvchining qalbida ezgu fazilatlar uyg'onib, o'qituvchiga bo'lgan hurmati oshsa, ajab emas.

"Matnazar...chindan ham donishmand, o'ta halol, to'g'ri so'z, bag'ri keng va ayni chog'da nihoyatda nozik fikrlaydigan inson ekanini bildim", -deydi Abdulla Oripov.

Bu fikrlar Matnazar Abdulhakimning o'ta kamtar, ko'nglida kiri yo'q, samimiy, tafakkur ko'lami g'oyatda keng inson ekanligini tasdiqlaydi.

Shoirning bir qator she'r va g'azallari Xorazm shevasida yozilganligi bilan ajralib turadi. Bu orqali ijodkor Xorazm shevasining naqadar go'zal, inson qalbiga yetib boradigan so'z va iboralarga boy ekanligini ko'rsatib bergan.

"Sani o'ylag'anda kipriklarima...", "Yorim xo'shro'qliqda yurtni eng aldi", "Yodimnan chiqmiysiz, og'o, dadingmi...", "San bilan o'ylag'an o'ylarimiz bir", "Qidirib borvadim olis qolog'o", "Iydala gullabdi teyinnan o'tib..." she'rlari Xorazm shevasining latofatini ko'rsatuvchi ijod namunalari hisoblanadi.

"Yodimnon chiqmiysiz, og'o", -dadingmi,
Sog'inib oqardi sochi og'ongning.
Bo'g'ma ilon bo'lib bo'g'ar oyroliq,
Na garak yodingnon chiqormog'oning.

Yoddon chiqormog'on diydor bo'lomi,
Yorsizlikdan xudo urg'oni yoxshi.
Yoddon chiqorsom yor hech bo'lmog'ondo
Har vohda bir galib durg'oni yoxshi.

Matnazar Abdulhakim she'riyatining aksariyati yoshlikning bezavol mevasi bo'lgan ishq-muhabbat,inson umri va safar,Ona Vatanni sevish,tabiat va uning go'zalligi,musaffoligi haqidagi she'rlardan iborat.

Baxt izladim men dala-dashtdan,

Orzuyim-bol,umidim asal.

Onaginam!Seni aldashdan

Halokatni sanadim afzal.

"Matnazar Abdulhakim she'riyati ko'p asrlik badiiy tajribalar sarchasmasidan fayz va rag'bat olgan hamda betakror talqin va mahorat bilan uyg'unlashgan she'riyatdir.Grajdanklik ruhi va umuminsoniy pafos uning bosh g'oyasini tashkil qiladi.Bu g'oya,fikr va tuyg'u yaxlitligida badiiy sayqal topadi,qog'ozga,so'ngra ko'ngillarga ko'chadi.Shoirga xos teran nigoh va ohorli badiiy topilma ifodasi shundan tug'iladi",-deya ta'kidlaydi Hamdam Abdullayev.Haqiqatdan ham Matnazar Abdulhakimning fikrlash ko'lami,ko'ngil sarhadlari shu darajada keng ediki,shoir qalbidagi har bir his-tuyg'ularni,go'zallikni,dard-alamni kitobxonga yuqtira bilgan.Shoir umri davomida barakali ijod qildi va bizga katta ilmiy-adabiy meros qoldirdi.

Abdulla Oripovning shunday da'vatkor fikrlari mavjud: "Ayni kamolga yetib turgan bir paytda Matnazar oramizdan ketdi...biroq uning ijodi haqida yozish hamon biz tiriklarning bo'ynimizda turibdi".

Darhaqiqat,Matnazar Abdulhakim she'riyatini bir ummon deb tasavvur qiladigan bo'lsak,yuqorida aytilgan fikrlar ummondan bir qatra edi xolos.

Ana shu ummondan bahramand bo'lib Matnazar Abdulhakim ijodini o'rganish va u haqida yozish,albatta,biz tiriklarning bo'ynimizdadir.

Insonlar vafot qilsa ham,ularning ruhi,ular qoldirgan ma'naviy meros hech qachon o'lmaydi deganlaridek,Matnazar Abdulhakim she'rlari bilan hali hanuz yuraklarda,qalblarda yashayapti va abadiy yashab qoladi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matnazar Abdulhakim "Javzo tashrifi" Toshkent:Sharq,2008
2. Abdulla Oripov "Teran ijod:Matnazar Abdulhakimni eslab.Xotiralar" Toshkent
3. B.Sarimsoqov "Badiiylik asoslari va me'zonlari" Toshkent,2004
4. Hamdam Abdullayev "Mangulikka muxtasar nazar" Urganch,2018